

Qabul qilindi: 06.01.2025
28.02.2025

Chop etildi:
UDK: 89331.729:8930.3

CHET TILIDA NUTQ GRAMMATIKASINI O'QITISH MUAMMOLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Amirqulova Dilnoza Bahriddin qizi, Navoiy davlat universiteti 2-
kurs tayanch doktoranti*

PROBLEMS AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TEACHING SPEECH GRAMMAR IN A FOREIGN LANGUAGE

*Amirkulova Dilnoza Bahridin kizi, Navoiy State University 2nd
year foundation doctoral student*

ПРОБЛЕМЫ И ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ГРАММАТИКИ РЕЧИ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

*Амиркулова Дилноза Бахриддин кызы, докторант 2-курса
Навоийского государственного университета*



[https://orcid.org/ 0009-
0005-9925-4602](https://orcid.org/0009-0005-9925-4602)

e-mail:
wdilnoz1994@gmail.com

Annotatsiya: Muloqot jarayonida nutq grammatikasini o'qitish o'quvchilarning grammatik qoidalarni to'g'ri tushunishi va muloqotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantiradi. Ammo, bu jarayonda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan, grammatik interferensiya, nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, o'quvchilarning motivatsiyasi yetishmasligi va darsliklarning moslashuvchan emasligi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari, jumladan, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va moslashuvchan ta'lim vositalaridan foydalanish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Nutq grammatikasi, chet tili, grammatik interferensiya.

Abstract: Teaching speech grammar in the process of communication forms the ability of students to correctly understand grammatical rules and apply them in communication. However, this process faces many difficulties, including grammatical interference, the gap between theory and practice, lack of motivation of students, and inflexibility of textbooks. The article discusses ways to overcome these problems, including the use of a communicative approach, interactive methods, and flexible teaching aids.

Keywords: Speech grammar, foreign language, grammatical interference.

Аннотация: Обучение грамматике речи в процессе общения развивает у учащихся умение правильно понимать грамматические правила и применять их в общении. Однако этот процесс сталкивается со многими трудностями, включая грамматические помехи, разрыв между теорией и практикой, отсутствие мотивации у студентов и негибкие учебники. В статье рассматриваются пути преодоления этих проблем, в том числе использование коммуникативного подхода, интерактивных методов и гибких средств обучения.

Ключевые слова: грамматика речи, иностранный язык, грамматическая интерференция.

KIRISH. Chet tilda nutq grammatikasini o'qitish o'quvchilarda chet tilini amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayon ko'plab muammolar va

qiyinchiliklar bilan birga keladi. Shuningdek, nutq grammatikasi o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ta'lim jarayonining o'ziga mos yondashuvlarini talab qiladi. Bunday interferensiya til o'rganuvchining ona

tili va o'rganilayotgan til o'rtasidagi grammatik farqlardan kelib chiqadi. Grammatik interferensiya natijasida, o'rganilayotgan tilning grammatik qoidalari ona tili grammatikasiga moslashtiriladi va bu tilning qoidalariga zid bo'lishi mumkin. Bu holat, asosan, so'z tartibi, fe'l shakllari yoki artikllar noto'g'ri qo'llanishida namoyon bo'ladi.

Chet tilida nutq grammatikasini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Nazariya va amaliyot tafovuti:

Grammatik qoidalar nazariy jihatdan yaxshi tushuntirilsa-da, o'quvchilar ularni real muloqotda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Nutq grammatikasini o'qitish, o'quvchilarning qoidalarni nazariy ravishda o'rganishidan tashqari, ularni real muloqotda qo'llash imkonini yaratishdir. Masalan, o'quvchilarni suhbat va rolly o'yinlarga jalb qilish orqali grammatik qoidalarni mustahkamlash.

Preview:

T
A
L
K

SCHOOL

Students need extra classes to be good at something. Do you agree?	Describe two of your teachers. Are they demanding, strict, understanding or impatient?
Talk about the laziest student in your class. Are you lazy? Why (not)?	Is it easy for you to get satisfactory test results? What do your parents do if you fail a test?
Do you like textbooks you are using at school? Which one is your favorite? How about your English course book?	What makes a good form teacher? Is your form teacher fair? Why (not)?
Is it easier to learn or to teach somebody? Why are there so few good teachers?	What school objects do you always carry in your schoolbag? Are they brand-name? Do you need brand-name products to be accepted by your classmates?

Masalan: She have book. Artikl tushib qolishi hamda "have" fe'lining III shaxsga moslashmaganligi.

2. O'quvchilarning motivatsiyasi yetishmasligi. Grammatikani o'rganish ko'pincha zerikarli deb qabul qilinadi, bu esa o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. **Til o'rganish jarayonida o'quvchilarimizni yetarli**

miqdorda rag'batlantirmaganimiz, yoki oddiy xatolariga ham baholarni pasaytirib qo'yishimiz sabablardan biri bo'lib ko'rinishi mumkin.

Masalan, dars davomida o'quvchilarimizni oddiygina bunaqa ko'rinishdagi rag'bat kartochkalari bilan ham rag'batlantirib borishimiz mumkin.




Bu baholash kartochkalari yordamida o'quvchilarga hozirgi yangi baholash tizimi bo'yicha, ya'ni kunlik formative baholarini

yig'ish tartibini o'rgatadi, o'quvchi dars davomida necha ball olganini o'z ko'zi bilan ko'rib turadi.

3. **Qisqa vaqt va resurslarning yetishmasligi.** Chet tili darslarida grammatika va nutq ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish uchun vaqt va qo'shimcha materiallar yetarli bo'lmashligi mumkin. Darsliklardagi ma'lumotlardan tashqari mavzu doirasida kunlik tarqatma materiallar, mavzuga aloqador ko'rgazmalar tayyorlab dars davomida o'quvchilarda bo'sh vaqt bo'lib, ularning fikri chalg'ishiga yo'l qo'yilmasligiga alohida e'tibor bermog'imiz darkor.

Masalan: Bu kabi boshqotirmalar ham o'quvchilarni darsga qiziqtiradi hamda diqqatini jamlab, darsga kirishib olishga yordam beradi.



4. **O'zaro feedback (qayta aloqa):** O'quvchilarning grammatik xatolariga e'tibor qaratib, ularni tushuntirish va tuzatish jarayoni yumshoq va konstruktiv bo'lishi kerak.

Chet tili nutqining grammatik tomonini o'rgatish muammolari va xususiyatlari.

Chet tilidagi nutqning grammatik tomonini o'rganish chet tilini o'zlashtirishda murakkab, ammo muhim jihatdir. Grammatika to'g'ri jummalarni yaratish uchun tizimli asosni ta'minlaydi va fikringizni og'zaki va yozma tilda samarali ifodalashga yordam beradi. Biroq, uning rivojlanish jarayoni bir qator muammolar bilan birga keladi va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi:

- Grammatikani o'qitish muammolari;

3. **Interaktiv darslar.** Nutq grammatikasini o'rgatishda texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanish, masalan, video darslar, onlayn platformalar, o'yinlar orqali darslarni qiziqarli qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi video va podkastlarni tinglash va ular asosida muhokama o'tkazish.

Masalan: o'quvchilarga biron mavzuni tushuntirib bo'lingandan so'ng, ular bilan o'sha mavzuga taalluqli bo'lgan debatlar, davra suhbatlari olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Ona tilidan o'tkazish.

Til o'rganuvchilar ko'pincha grammatik tuzilmalarni ona tilidan chet tiliga o'tkazadilar, bu esa xatolarga olib keladi.

Misol: ona tilida so'zlarning tartibi ingliz tiliga qaraganda erkinroq bo'lib, bu gaplar tuzishda xatoliklarga sabab bo'lishi mumkin ("Kecha men kino ko'rdim" o'rniga "Kecha kino ko'rdim"). Ingliz tilida esa gapda so'zlarning o'rnini o'zgartira olmaymiz. "I watched the movie yesterday" shaklida bo'ladi.

XULOSA. Ingliz tilida nutq grammatikasini o'qitish, nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni amalda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish samarali bo'ladi. Dars jarayonida kontekstual va

kommunikativ yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish va individual yondashuvlarni tanlash orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Ushbu metodlar o'quvchilarning grammatikani muloqotda tabiiy va ravon qo'llashiga yordam beradi. Ingliz tilida nutq grammatikasini o'qitish jarayoni ko'plab muammolarga qaramay, til o'rganuvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun interaktiv yondashuvlar, shaxsiylashtirilgan metodlar va kontekstual ta'limda qo'llanilishi darkor. Bu usullar grammatikani faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy ko'nikma sifatida ham o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdug'afurovich, R.B. (2022). Innovation Technologies in Teaching English. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 288-291.
2. Dilafruz Xidoyatova. Samarali interaktiv metodlar. 1.0. Toshkent. Vneshinvestprom-2023. Pp-177-181.
3. Hoshimov O'.H., Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi.-Toshkent, 2003-yil.
4. Khodjayev, K.K. (2021). The specificity and complexity of the process of learning English. International Journal on Orange Technologies, 3(6), 21-24.

